

**FARIDA AFRO`ZNING “TASBEH – ROSARY – CHETKI” TURKUMIDA VATAN
MAVZUSINING IFODALANISHI**

Abdumo`min Mamtaliyev,

ADU adabiyotshunoslik yo`nalishi II bosqich magistranti

O`zbek adabiyotida novatorlik deb bimalol ayta oladigan, o`zgacha bir janrning paydo bo`lishi bevosita Farida Afro`z nomi bilan bog`liq. Bu haqida adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo`ldoshev quyidagi fikrlarni bildirib o`tadi: Ma`lumki, “tasbeh” janri mumtoz milliy she`riyatimiz tajribasida ham, xalq og`zaki ijodida ham uchramaydi. To`g`ri, o`zbek poeziyasida uchlik bandlardan tashkil topgan she`rlar bor edi. Shuningdek, yapon xokkularidan ta`sirlanib yozilgan uchliklar ham bo`lgan. Lekin mustaqil tasbehlardan iborat butun bir kitob tartib berilishi va har o`ttiz uch tasbeh bir shodaga tizilib, yetti she`riy marjon hosil qilinishi milliy poetik tajribamizda bo`lmagan edi”<sup>1</sup>. Ushbu turkumdagi she`rlar biz har kuni uchratadigan, kundalik hayotda ro`y beradigan hodisalarni aks ettiradi.

Erkin Vohidov she`rlaridan birida “She`rning ozi - to`rt satr, to`rt ajoyib zo`r satr, shoir odam o`zini to`rt satrda ko`rsatur” deya shoirning bahosini bildirib qo`ygan edi, Bugungi she`riyatimizda shakldan chetlashib, mazmun tomon yuqorilab borish jarayoni kuzatilmoqda. Anvar Obidjonning “ignabarg she`rlari, Faxriyorning “geometrik shakl” turkumi, Rauf Parfi uchlik she`rlari bularga misol bo`la oladi.

Bunday she`rlarning o`ziga xos estetik jihati shundaki, ularda insonning ko`ngil kechinmalari keng ifodalanadi, ya`niki, ijodkor o`zining umr va hayotga nisbatan bo`lgan mushohadalarini aslidagiday aks ettira oladi. Qisqargan shakl olamshumul ma`noni siqib qo`ya olmaydi, balki ayni shu qisqalik, mazmunga qanot baxsh etadi.

“Tasbeh” arabchada “poklash”, “maqtash” ma`nolarini anglatib, ilohiy istilohda Allohni poklash, uning har qanday kamchiliklardan holi, eng buyuk, eng qudratli, eng mehribonligini madh etishni bildiradi<sup>2</sup>. Shoir mana shu diniy atamani maxsus she`riy janrga xoslab, badiiylashtira olgan. Allohga yaqinlik haq so`zni aytish, ko`ngil tubida asllikni tan olish bilan boshlanadi.

Bandasining ruhiyatidagi, olam va odam, odam va odam munosabatlaridagi chigal tuyg`ular ifodasini chizishda shoiraga ayni shu janr qo`l kelgan. Ularda bandasining Allohga munojoti yaqqol aks etadi, bu tasbehtar mubolag`a bo`lmasa, ko`z bilan o`qilmaydi, bil`aks, qalb bilan seziladi:

Dunyo –

*Arava tortgan
Bemajol hachir,
Yohu! Yo, Alloh!*

¹ Yo`ldoshev Qozoqboy. Ulkan tuyg`ularning mo`jaz sur`atlari. Farida Afro`z. Tasbeh. “Sharq”, 2007, -5 bet.

² Shu kitob, 6-bet

“Tasbeh –Chetki – Rosary” kitobi hayotni teran tushunish, unga san’atkorona boqa olish mevasi sifatida bo’y ko’rsatdi.

*Bir kimsani ko’rmadim sira
Qo’lingamas ko’zingga qarab
Senikiman deya olganin (tasbeh -1, 20)*

Ushbu tasbehda shoira hayotdagi haqiqat – odamlarning qo’lga qarashi, nafsga qulligi, odam va odam munosabatlaridagi manfaatni ko’zlashni ta’sirli qilib ifodalagan.

*Sen menga hech do’st bo’lolmaysan
Aytchi, qachon qanday chumoli,
Ko’tarolgan filning yukini?!*

Do’stlikning birinchi sharti qiyin vaziyatlarda do’sti yonida turish. Shoira shunga ishora qiladi. Shoira bu yerda qismatida fildek yuki bor inson bilan zalvori chumolicha bo’lmagan odam do’st bola olmasligini nazarda tutadi. Bir o’qiganda, estetik jihatdan qo’pol tuyilgan jumlar hayot haqiqatini ko’rsatib beradi. Ya’ni, sharqona madaniyatda odamning yuziga aytish odobdan emas. Lekin ijodkorga yolg’on aytish begona. Shoira to’g’risini aytib qo’ya qoladi: rostdan chumoli filning yukini ko’tarmaydi, aldashga ne hojat?!

Tasbehlarni o’qir ekanmiz, unda hayotimizda sodir bo’layotgan, har kuni ko’rib-o’rgangan, voqea-hodisa in’ikosini ko’ramiz, rostdan shundayligiga tan beramiz:

*Qo’zichoqni suyib, erkalab
Kaftingda non berib, so’ng
So’yib yeganing qiziq (tasbeh-5,1)*

Odamzod tabiatiga xos bo’lgan xudbinlik, ochko’zlikni shoira shunday ifodalaydi. Bu dunyoda qilinadigan barcha hatti-harakatlar zamirida manfaat yotishini eslatadi. Tasbehlar, nazarimda, biz hammamiz biladigan, lekin tan olmaydigan, tan olgimiz kelaydigan xulosalarni aks ettirgan.

*Do’sting qo’lingga
Yoring husningga
Onang seni yo’lingga qaraydi (tasbeh 6, 33)*

Shoira ona haqidagi an’anaviy munosabatdan qochadi, gapning “indallo”sini, ochig’ini aytib qo’ya qoladi.

Vatan, millat tushunchalari aks etgan tasbehlar ham mavjudki, ularni shoira achchiq kesatq orqali ifodalaydi.

*Mening juda tarixim uzun
Ildizim ham juda chuqurdir
Faqa-a-at paxta ekib o’tmagan otam!!! (tasbeh-3,21)*

O'zbek xalqining asrlarga dahldor o'tmishi mavjud. Bir paytlar dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan al-Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Buxoriylar, Amir Temur, Navoiylar yurti bu. Shoiralar ularni sanab, isbotlab bermoqchi emas. Ularni bilish tinglovchining xohishi. Ajdodlarni sanab o'tish, tarixining chuqur ildizlari mavjudligini "faqa-a-at" yuklamasi orqali ifodalagan. Yana bir tasbehda mana shu hislar davom etadi. "Til tegizma" birikmasida kuchli his-hayajon ifodalangan.

Til tegizma, mening naslimga,

Daho tuqqan har yili onam,

Otam faqa-a-a-t poda boqmagan.

O'tgan asrda ota-bobolarimizning mustamlaka davridagi hayoti qanday o'tgani barchamizga ma'lum. Yurtdan olis hududlarda kimlarningdir to'lmay qolgan "qopchig'"ini to'ldirish uchun boshlangan urushda ne-ne o'zbek yigitlari qurbon bo'ldi, tirik qolganlari yarim chalayon bo'ldi. Bolalar ota degan nomni unutdilar, ayollar beva bo'lib qoldilar. Shoiraning quyidagi tasbehini o'qib, birgina "darhaqiqat" deyish mumkin, xolos:

Otam kuragida bir o'q parchasin

Yarim asr asradi, azoblar ichra,

Birovning vatanin himoya qilib (tasbeh – 4,2)

Bu misralarda nafaqat urushda qurbon bo'lgan o'zbek o'g'lonlari, balki olovlar ichidan tirik qaytgan, ammo hayoti qurbon bo'lgan ota-bobolarimiz taqdiri ro'yi rost chizilmoqda. Jumladan, Yuqoridagi uchlikda O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanidagi Afg'on urushidan omon qaytgan, biroq butun umri, hayoti ma'naviy qiynoqlardan o'tgan Rustamlar dardi yangramoqda. Yoki Erkin Vohidovning "Nido" dostonidagi urushdan zarralar natijasida ikki qo'lidan ayrilib uyiga qaytgan Hol akaning ahvolini ko'z oldingizga keltiring "...O'g'li dada deb chiqibdi, quchay desa, qo'li yo'q, Tik turgan joyida yig'layveribdi" ("Nido" dostonidan).

Vatan tushunchasini esa quyidagi tasbeh orqali ifodalaydi. Tirik jon uchun ko'z ochib ko'rgan, tug'ilgan joyi vatan bo'lishi nazarda tutiladi:

Poxol g'aramida

Mushuk bolaladi

Mushukchalar poxolini juda sevadi (tasbeh-2, 30)

Xulosa shuki, tasbehlar insonni mushohadaga chorlovchi, o'quvchi ko'z o'ngida turli manzaralarni paydo qilishga imkon yaratgan.